

Fosforli o'g'itlar va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga bag'ishlangan konferensiya

2018-yil 25-26-oktabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, Innovatsion rivojlanish vazirligi hamda "O'zkimyosanoat" AJ hamkorligida «Марказий Қизилқум ва Қоратоғ фосфоритлари асосида фосфорли ўғитлар ишлаб чиқаришнинг замонавий ҳолати ва ривожланиш истиқболлари» mavzusida xalqaro ilmiy-texnik konferensiya o'tkazildi. Unda respublikamiz olimlari, Qozog'iston, Tojikiston davlatlari yetakchi olimlari hamda sanoat korxonalari vakillari ishtirok etishdi. Ikki kun davom etgan konferensiya ishida fosforli o'g'itlarni qayta ishlash muammosi va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish, fosforli o'g'itlar va fosfor kislotasi tuzlarining yangi texnologiyalari, O'zbekistonda superfosfat ishlab chiqarish va ulardan foydalanish kabi masalalar muhokama qilindi.

